



ONA TILI DARSLARIDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH USHLARI VA YOSH AVLODNI FANGA QIZIQTIRISHDA YANGICHA YONDASHUVLAR

Хабибова Гулбахор Юлдашовна

Хоразм вилояти Урганч шаҳар 13-сонли умумий ўрта таълим мактабнинг она тили ва адабиёт фани ўқитувчиси

Annotatsiya: *ushbu maqolada ta'lim tizimini yangilash, darsliklar va o'quv dasturlarini o'zaro uyg'unlik va bog'liqlikda ishlab chiqish, o'quv jarayonini tashkil etishda yangi pedagogik texnologiyalarni amaliyotga tadbiiq etish usul va vositalarini ishlab chiqish pedagogika oldida turgan dolzarb muammolardandir. Bu masalalarni hal etishda asosiy omil o'qituvchining o'z kasbiga mas'uliyat va ijodkorlik bilan yondoshishi hisoblanadi. Ammo, shu kunga qadar pedagogik texnologiyaning aksariyati nazariy muammolarga bag'ishlangan bo'lib, amaliyotga ta'siri kamroq sezilmoqda. Buning uchun zamonaviy texnologiyalarni tezroq amaliyotga joriy etish usullarini ishlab chiqish talab etilishi kerakligi haqida ilmiy izlanishlar olib borilgan.*

Kalit so'zlar: *pedagogik texnologiya, davlat va jamiyat, yosh avlod, a'maliyot, ta'lim-tarbiya, pedagogik yondashuvlar.*


METHODS OF USING NEW PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN MOTHER LANGUAGE LESSONS AND NEW APPROACHES TO INTERESTING YOUNG GENERATION IN SCIENCE

Хабибова Гулбахор Юлдашовна

Хоразм вилояти Урганч шаҳар 13-сонли умумий ўрта таълим мактабнинг она тили ва адабиёт фани ўқитувчиси

Abstract: *In this article, the updating of the educational system, the development of textbooks and educational programs in harmony and interdependence, the development of methods and tools for the practical application of new pedagogical technologies in the organization of the educational process are the actual issues facing pedagogy. is one of the problems. The main factor in solving these issues is the teacher's approach to his profession with responsibility and creativity. However, until today, most of the pedagogical technology is devoted to theoretical problems, and the impact on practice is less noticeable. For this, scientific research has been conducted that requires the development of methods of faster implementation of modern technologies.*

Key words: *pedagogical technology, state and society, young generation, practice, education, pedagogical approaches.*





KIRISH

“Yosh avlodning insoniyat daholari bo'lgan buyuk ajdodlarimizga munosib bo'lish yo'lida tobora kuchayib borayotgan intilishni ham yangilanishning salmoqli yakuni sifatida alohida ta'kidlab o'tmoq kerak. Davlat va jamiyatning yosh avlod jismoniy va ma'naviy jihatdan sog'lom bo'lishga e'tibori oshganligi islohotlarning sharofatidir” .

Ta'lim-tarbiya mazmuni, maqsad va vazifalari davrlar o'tishi bilan kengayib borishi natijasida uning shakl va usullari ham takomillashib bormoqda. Hozirda inson faoliyatining asosiy yo'nalishlari ulardan ko'zda tutilgan maqsadlarni to'liq amalga oshirish imkoniyatini beruvchi yaxlit tizimlar, ya'ni texnologiyalarga aylanib bormoqda. Xuddi shu kabi ta'lim-tarbiya sohasida ham so'nggi yillarda pedagogik texnologiya amal qila boshladi.

ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH


Ma'lumki, hozirgi kunda interfaol metodlarning yuzdan ortiq turi mavjud bo'lib, ularning aksariyati tajriba-sinovdan o'tib, yaxshi natija bergan. Keng qo'llaniladigan usullar – “Klaster”, “Aqliy hujum”, “Davom ettir”, “Taqqimot”, “Blits-so'rov”, “Muammoli vaziyat” kabilardan foydalanib, darsda samarali natijalarga erishish mumkin. Darsning o'tilgan mavzuni so'rash qismida “Sinkveyn”, “Teskari test”, “Aql charxi” metodlarini, yangi mavzuni tushuntirish qismida “Insert”, “Pinbord”, “Zinama-zina”, “Bumerang” texnologiyalarini, mavzuni mustahkamlash qismida “Venn diagrammasi”, “Baliq skeleti”, “Nima uchun?”, “Qanday?”, “Konseptual jadval”, “Nilufar guli” kabi grafik tashkil etuvchilar hamda “Tushunchalar tahlili”, “T-jadval”, “Rezyume”, “Kungaboqar”, “Charxpalak” metodlarini, uyga vazifa berishda “FSMU”, “Klaster”, “BBXB” metodlarini qo'llash dars samaradorligini ta'minlab, o'quvchilarning bilimni oshirishga yordam beradi

Ona tili va adabiyot darslarida ham yuqorida sanab o'tilgan interfaol metodlardan tashqari “Ha... yo'q”, “Ta'rif egasini top”, “Men kimman?”, “Domino” kabi didaktik o'yinlardan foydalanish mumkin. O'yin vaqtida o'quvchilar o'zini erkin tutadi, bilimni namoyon etgisi keladi. Natijada o'quvchida ishonch, qat'iyat paydo bo'ladi. Munozaraga kirishishni o'rganadi. Fikrini asoslashga odatlanadi. Bunda o'quvchilarning yoshi, bilim darajasi inobatga olinishi lozim.

O'qituvchi va o'quvchining maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq natijaga erishishga qaratilgan bo'lib, bunda ishlatiladigan texnologiya o'quvchilarning bilim saviyasi, guruh tabiati va sharoitga qarab tanlanadi

INTERFAOL METODLAR BIZGA NIMA UCHUN KERAK?

Interfaol metodlar ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarflamay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishish maqsadini nazarda tutadi. Interfaol metod- ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi bo'lgan metod. Interfaol metod va usullar: “Keys-stadi”,





“Blist-so’rov”, “Modellashtirish”, “Sinkveyn”, “BBB”, “Venn diagrammasi”, “T jadvali”, “Klaster”, “Balik skaleti”, “Aqliy hujum”, “Zinama- zina”, “Muzyorar” va hakoza.


“MUZYORAR” METODI

“Muzyorar” dars o‘tilayotgan sinfda o‘quvchilar befarqligining oldini olishga dars jarayonida hosil bo‘lgan charchoqni va o‘quvchilarga ruhiy bosim bo‘lishining oldini olishga mo‘ljallangan ma‘lum bir xildagi faol faoliyat turidir. Demak, ular sinfda yuzaga kelgan “muzlash” ning oldini olish va agar bunday “Muzlash” hosil bo‘lgan bo‘lsa, uni eritib, yorib yuborish uchun ishlatilishi mumkin. Ko‘pgina o‘qituvchilar “muzyorar” larni ta‘limni boshlang‘ich bosqichidagina ishlatadilar, lekin uni xuddi shunday muvaffaqiyat bilan dars davomida, o‘quvchilar bilan yoki o‘quvchilararo muloqot ma‘lum sabablarga ko‘ra qiyinlashganda ham ishlatish mumkin. Bazi turlarga oid “muzyorar”lar o‘quvchi yoki talabalarning bir birlari bilan tanishishlariga mo‘ljallangan bo‘lib, guruhlardagi shaxslarning bir-birlariga savol berishlarini ularning o‘qish yoki ish sharoitlari haqida o‘zaro ma‘lumot olishlarini, nimani yoqtirishlari haqida mulohaza qilishlarini o‘z ichiga qamrab oladi. Buning sababi shundaki o‘quvchi yoki talabalar darslarning boshlanishida bir birlarini yaxshi bilmaydilar. Shu sababli, ular orasidagi “muzdek” aloqani qandaydir usullar bilan eritib, do‘stona aloqa o‘rnatish kerak. Hozirgi kun ona tili o‘qituvchisi bu yangi ta‘lim usullari va metodlaridan qay darajada foydalanyapti? Bizningcha darslarda bu metodlardan ayrim murabbiylar unumli foydalanmayapti. Jamiyatning axborotlashuvi ta‘lim tizimida uzluksiz innovatsiyalarni talab etadi. Bugun har qanday uslub darhol eskirishi va yangi metodlar bilan boyitilishi mumkin. Dars mashg‘ulotida kerakli natijalarga erishish qaysi omillarga bog‘liq? Dunyoning turli mamlakatlarida ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan ta‘limda innovatsiyalarni qo‘llash bo‘yicha izlanishlar olib borilgan. Ularda «innovatsiya», «interfaol usullar», «innovatsion texnologiyalar» to‘g‘risida yaxshi axborotlar to‘plangan, biroq axborot texnologiyalarini ta‘lim muassasalarida o‘rgatish samaradorligini orttirish bo‘yicha aniq tavsiyalar yetarli emas. Ta‘lim jarayoniga innovatsiyalarni qo‘llash bugungi kunda quyidagi vazifalarni amalga oshirishni talab etadi:

- ❑ o‘quv fanining aniq maqsadini aniqlash;
- ❑ fanning hajmi va mazmunini aniqlash;
- ❑ zarur bo‘lgan ta‘lim texnologiyalarini ishlab chiqish va tavsiya etish;
- ❑ fanning moddiy va texnik ta‘minotini yaratish;
- ❑ ta‘lim oluvchilarning xususiyatlarini o‘rganish;
- ❑ o‘qituvchining tayyorgarligi va dars mashg‘ulotini loyihalash.

PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA TUSHUNCHASI VA UNGA TURLICHA YONDASHUVLAR

Pedagogik texnologiya tushunchasi ta‘lim-tarbiya amaliyotini rivojlantirish ehtiyojlari asosida kelib chiqqan, va hozirda pedagogika, psixologiya fanlarida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan keng ko‘lamli serqirra tushunchadir. Pedagogik texnologiyada ishlab chiqarish sohalaridagi turli texnologiyalardan farqli ravishda ishlov beriladigan





material o'quvchi (ta'lim oluvchi)ning aqliy, ruhiy, axloqiy sifatleri bo'lib, ularga o'qituvchi, tarbiyachi tomonidan ma'lum maqsadlarga erishish yo'lida har turli ta'sirlar o'tkaziladi. Pedagogik texnologiya tushunchasi dastlab XX asrning o'rtalarida AQShda paydo bo'lib, 1940-50 yillar o'rtasigacha "Ta'lim texnologiyasi" deb yuritilib kelgan va bu ibora texnika vositalaridan foydalanib o'qitishga nisbatan qo'llanilgan. 50-60 yillarda programmashtirilgan ta'lim nazarda tutilgan, 70- yillarda "pedagogik texnologiya" iborasi qo'llanilib u avvaldan loyihalashtirilgan va aniq belgilangan maqsadlarga erishishni kafolatlovchi o'quv jarayonini bildirgan.1979 yilda AQShning Pedagogik kommunikatsiyalar va texnologiyalar assotsiatsiyasi tomonidan Pedagogik texnologiyani kompleks, integrativ jarayon deb asoslangan va 80- yillarning boshidan esa pedagogik texnologiya deb ta'limning kompyuterli va axborot texnologiyalarini yaratishga

Pedagogik texnologiya – Bu o'qituvchi (tarbiyachi)ning o'qitish (tarbiya) vositalari yordamida o'quvchi (talaba)larga muayyan sharoit va ketma-ketlikda ta'sir ko'rsatish va bu faoliyat maxsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarini shakllantirish jarayondir. (N.Saydaxmedov).

Pedagogik texnologiya – o'qitishning, ta'limning shakllari, metodlari, usullari, yo'llari, tarbiyaviy vositalarning maxsus yig'indisi va komponovkasi (joylashuvi)ni belgilovchi psixologik tartiblar (ustanovka)lar majmuasi;u pedagogik jarayonning tashkiliy-uslubiy vositalaridan iborat (B.T.Lixachev).


Pedagogik texnologiya – texnika resurslari, odamlar va ularning o'zaro ta'sirini hisobga olgan holda ta'lim shakllarini optimallashtirish vazifasini qo'yuvchi o'qitish va bilimlarni o'zlashtirishning hamma jarayonlarini yaratish, qo'llash va aniqlashning tizimli metodi. (YuNESKO).

Pedagogik texnologiya – bu o'qitishga o'ziga xos yangicha (innovatsion) yondashuvdir.U pedagogikadagi ijtimoiy-muhandislik tafakkurining ifodalanishi, texnokratik ilmiy ongning pedagogika sohasiga ko'chirilgan tasviri, ta'lim jarayonining muayyan standartlashuvi hisoblanadi.(B.L.Farberman)

Ushbu aytilganlar asosida pedagogik texnologiyaning quyidagi eng qisqa va umumlashtirilgan ta'rifini keltirishimiz mumkin:

Qo'llaniladigan asosiy metod bo'yicha pedagogik texnologiyalar quyidagi turlarga ajratiladi:

- Dogmatik, reproduktiv metod ;
- Tushuntirish, ko'rgazmali;
- Rivojlantiruvchi ta'lim;
- Muammoli, izlanishli;
- Ijodiy metod;
- Dasturlashtirilgan ta'lim metodi ;
- Dialogli metod;
- O'yin metodi ;
- O'z-o'zini rivojlantiruvchi ta'lim metodi;





Axborotli (kompyuterli) ta'lim metodi

“CHARXPALAK” TEXNOLOGIYASI

Texnologiyaning tavsifi. Ushbu texnologiya o'quvchilarni o'tilgan mavzularni yodga olishga, mantiqan fikrlab, berilgan savollarga mustaqil ravishda to'g'ri javob berishga va o'z-o'zini baholashga o'rgatishga hamda qisqa vaqt ichida o'qituvchi tomonidan barcha o'quvchilarning egallagan bilimlarini baholashga qaratilgan.

Texnologiyaning maqsadi: o'quvchilarni dars jarayonida mantiqiy fikrlash, o'z fikrlarini mustaqil ravishda erkin bayon eta olish, o'zlarini baholash, yakka va guruhlarda ishlashga, boshqalar fikriga hurmat bilan qarashga, ko'p fikrlardan keraklisini tanlab olishga o'rgatish.


Texnologiyaning qo'llanishi: texnologiya o'quv mashg'ulotlarining barcha turlarida dars boshlanishi yoki dars oxirida yoki o'quv predmetining birorn bir bo'limi tugallanganda, o'tilgan mavzularni o'quvchilar tomonidan o'zlashtirganlik darajasini baholash, takrorlash, mustahkamlash yoki oraliq va yakuniy nazorat o'tkazish uchun mo'ljallangan. Ushbu texnologiyani mashg'ulot jarayonida yoki uning bir qismida yakka, kichik guruh va jamoa shaklida tashkil etish mumkin.

Mashg'ulotda foydalaniladigan vositalar: tarqatma materiallar, rangli qalam (yoki flomaster) lar.

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi:

- o'quvchilarni (sharoitga qarab) guruhlariga ajratish;
- o'quvchini mashg'ulotni o'tkazishga qo'yilgan talablar va qoidalar bilan tanishtirish;
- tarqatma materiallarni guruh a'zolariga tarqatish;
- guruh a'zolari tomonidan yakka holda mustaqil ravishda tarqatma materiallardagi vazifalar bajariladi;
- har bir guruh ahzosi o'zi ishlagan tarqatma materialining o'ng burchagiga guruh raqamini yozadi, chap burchagiga esa o'zining biron-bir belgisini chizib qo'yadi;
- vazifa bajarilgan tarqatma materiallar boshqa guruhlariga “charxpalak aylanmasi” yo'nalishida almashtiriladi;
- yangi guruh a'zolari tomonidan berilgan materiallar o'rganiladi va o'zgartirishlar kiritiladi;
- jamoalar tomonida o'rganilgan va o'zgartirishlar kiritilgan materiallar yana yuqorida eslatilgan yo'nalish bo'yicha guruhlararo almashtiriladi (ushbu jarayon guruhlar soniga qarab davom ettiriladi);

Izoh: tarqatma materialda o'quvchilar belgilagan to'g'ri javoblar bilan o'qituvchi hamkorligida aniqlangan to'g'ri javoblarning farqi 0,55 % dan yuqori bo'lsa, o'quvchi ushbu o'quv materialini o'zlashtirgan, undan kam bo'lsa, o'zlashtira olmaganini bildiradi. Masalan, vazifalar soni 30ta bo'lib, javoblarning 17-20 tasi to'g'ri belgilangan bo'lsa, o'quvchi ushbu vazifani bajargan va o'quv materialini o'zlashtira olgan, agar undan kam bo'lsa, o'zlashtira olmagan hisoblanadi. shu bilan birga javoblarning 21-24





tasi to'g'ri belgilangan bo'lsa, o'quvchi materiallarni o'zlashtirgan darajasi "yaxshi" bahoga, 25-30 tasi to'g'ri bo'lsa, "ahlo" bahoga o'zlashtirgan deb hisoblanadi.

"SINKVEYN" METODI

Fransuzcha "sinq" so'zidan olingan bo'lib, besh degan ma'noni anglatadi. "Oq she'r" deb ham nomlanadi, qofiyasiz she'r. Biror so'zning beshta sifat xususiyati tavsiflanishi zarur. O'quvchilarga mavzuning kalit so'zlari beriladi. Har bir o'quvchi alohida qog'oz varag'iga ushbu so'zning xususiyatlarini yozadi, ular ot ham, fe'l ham, sifat ham bo'lishi shuningdek, ijobiy yoki salbiy jihatni aks ettirishi mumkin. Har bir qatorga yozilgan so'zlar bitta gap hisoblanib, u keng ma'noni o'ziga qamrab oladi.

1-qator mavzu bitta so'z bilan ifodalanadi.

2-qator ikkinchi so'z qo'shilib mavzu mazmuni kengaytiriladi.

3-qator uchinchi so'z kiritilib voqelik ochib beriladi.

4-qator to'rtinchi so'z kiritilib voqelikka shaxsning munosabati bildiriladi.

5-qator bitta so'z bilan umumlashtiriladi.

Sinkveyn metodidan ona tili darslarida foydalanish.

Masalan

1 – guruh - Ot .

2 – guruh – Ot mustaqil so'z turkumi.

3 – guruh - Ot mustaqil so'z turkumi, kim?, nima? so'rog'iga javob bo'ladi.

4 – guruh - Ot mustaqil so'z turkumi, kim?, nima? so'rog'iga javob bo'ladi.

Otlar birlik va ko'plikda ifodalanadi.

5 - Ot mustaqil so'z turkumi, kim?, nima? so'rog'iga javob bo'ladi.

Otlar birlik va ko'plikda ifodalanadi. Ot so'z turkumiga oid so'zlar gapda ega vazifasini bajaradi.


1 - Ot mustaqil so'z turkumi, kim?, nima? so'rog'iga javob bo'ladi.

Otlar birlik va ko'plikda ifodalanadi. Ot so'z turkumiga oid so'zlar gapda ega vazifasini bajaradi. Otlardan yasovchi qo'shimchalar yordamida yangi ma'no mazmunga ega so'zlar hosil qilishimiz mumkin.

ONA TILI DARSLARIDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH METODIKA

Uzluksiz ta'lim turlari bo'yicha maktabgacha ta'lim, boshlang'ich ta'lim, tayanch ta'lim, maktabdan tashqari-qo'shimcha ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish ta'limi pedagogik texnologiyalariga bo'linadi. Shu bilan birga, ta'lim sohalari bo'yicha ona tili, xorijiy tillar, adabiyot, ijtimoiy, tabiiy, aniq fanlar, san'at, sport, texnika, texnologiya, amaliy fanlar, kasb-hunarlar, maxsus ta'lim pedagogik texnologiyalari mavjud.

Hozirda mavjud bo'lgan pedagogik texnologiyalarni bir qancha belgilariga qarab turlarga ajratiladi. Bu belgilar haqida gapirishdan oldin shuni eslatib o'tishimiz kerakki, pedagogik texnologiya doimo kompleks xarakterga ega bo'lib, u faqat bittagina omildan, metoddan, tamoidan foydalanmaydi. Ya'ni quyida keltiriladigan turlarigagina xos bo'lgan monotexnologiyalar aslida mavjud emas.






Ona tili darslarida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish turli bosqichlarda amalga oshiriladi. Ona tili o'qitish metodikasida o'quvchilarning savodini chiqarish, grammatik tushunchalarini shakllantirish, ularning nutqiy va imloviy savodxonligini oshirishda qo'llanadigan usullar, mashqlar variantlari ko'p. Fonetik, grammatik, orfografik tushunchalarni mustahkamlash, nutqiy malakani mukammal shakllantirishda metodika fanidan belgilangan mashqlar qatorida o'yinlar orqali ta'limga ped texnologiyalarni tatbiq etish ham muhim o'rin tutadi. O'yinlarni boshqa mashq turlaridan farqi shuki, bunda bir tamondan, o'quvchilarning zerikishi, charchog'iga barham berilsa, ikkinchidan tamondan, bolalarning fikrlash jarayoni tezlashadi, muayyan belgilangan malakalarning mufassal shakllanishi osonlashadi.

Ma'lumki o'quvchi qancha yosh bo'lsa, darslarda qo'llanadigan qiziqarli o'yin elementlari shunchalik ko'p bo'lishi lozim. Chunki darsda qo'llanadigan didaktik o'yin, bir tamondan, ayrim bolalar tabiatiga xos bo'lgan qiziquvchanlik, sho'xlik kabi xususiyatlariga muvofiq kelsa, ikkinchi tamondan, ba'zi bolalardagi odamovilik, indamaslik, uyatchanlik kabi jihatlarini bartaraf etib boradi. Demak, o'yin jarayoni o'quvchi psixologiyasida keskin o'zgarishlar yasaydi. O'yin davomida o'quvchi mavhum grammatik-orfografik tushunchalar mohiyatini anglay boshlaydi, uning xotirasida ko'pgina so'zlar uchun umumiy bo'lgan belgilar o'rin ola boshlaydi, og'zaki va yozma nutqidagi orfoepik – orfografik tushunchalar mohiyatini anglay boshlaydi, yozma nutqidagi orfoepik – orfografik nuqsonlar kamayadi. O'yinlar sinf jamoasining erkin tutishlarini ta'minlaydi, darsning samaradorligi ortadi. O'yinda ko'pchilik o'quvchilarning faol ishtiroki ta'minlanib, reyting ballarini qo'yib borish imkoniyati tug'iladi.

XULOSA

Ona tili darslari o'quvchilarning mantiqiy fikrlashi, og'zaki va yozma nutqlarini rivojlanishi, o'z fikrini erkin va ravon bayon eta olishi, so'zlarni to'g'ri va o'z o'rnida qo'llash ko'nikma va malakalari rivojlantirishda asosiy fan hisoblanadi. shuning uchun ta'limning dastlabki bosqichidayoq ona tilini o'qitishga alohida etibor berish lozim.

Yoritilgan mavzuda pedagogika va metodikaga oid adabiyotlarni tahlil qilish natijasida pedagogik texnologiya va uning turlari haqida ma'lumotlar keltirildi. Texnologiya atamasi nazariy va metodik jihatdan tahlil qilinib, ilgari surilgan konsepsiyalar qiyoslandi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari borliq olamga, tabiat xodisalariga o'zgacha bir qiziqish va hayrat bilan qaraydilar. Ona tili darslarida so'z vositasida atrofdagi bo'layotgan voqealarni izohlash va ilmiy asoslash o'quvchilarning borliq haqidagi bilimlarini, tasavvurlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Ona tili darslarini yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishda o'quv dasturlari va darsliklardagi bo'lim va mavzular uzviyligiga e'tibor berish ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.





FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. J.Yo'ldoshev, S.Usmonov, "Pedagogik texnologiya asoslari", T., 2004.
2. J.Yo'ldoshev, "Ta'lim yangilanish yo'lida", T., 2000.
3. Tal'at G'afforova "Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar", T., 2011.
4. Ptiyukov V.Yu., "Osnovi pedagogicheskoy texnologi", M., 1999.
5. Q.Yunusov Ona tili darslarida ta'limiy o'yinlar. Andijon. 2005 y.
6. O'.Q.Tolipov Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. T.2010 y.
7. Qosimova K. 4-sinfda ona tili darslari. T. «O'qituvchi» - 1978 y.
8. Qosimova K. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. T. «O'qituvchi» - 1985 y.
9. Uzluksiz ta'lim. 2009 y №5 Toshkent
10. "Boshlang'ich ta'lim" jurnali, 2012.№ 6-son Toshkent

